

**XALQARO HUQUQDA SUVERENITET TAMOYILINING
ZAMONAVIY TAHLILI**

Axmadova Malika Usmon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik

Fakulteti 1-kurs talabasi

Ahmadovamalika070@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy maqolada xalqaro huquqda suverenitet tamoyilining zamonaviy talqini, uning mazmun-mohiyati va global jarayonlar ta'sirida kechayotgan transformatsiyasi tahlil qilinadi. Vestfaliya an'anaviy konsepsiyasidan farqli ravishda, bugungi kunda suverenitet nisbiy, o'zaro bog'liq va mas'uliyat bilan cheklangan tushuncha sifatida qaralmoqda. Maqolada inson huquqlari ustuvorligi, himoya qilish mas'uliyati (R2P) xalqaro tashkilotlar roli, kiberxavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va transmilliy muammolarning suverenitetga ta'siri yoritiladi. Amaliy misollar va xalqaro hujjatlar asosida suverenitetning zamonaviy huquqiy modeli haqida ilmiy xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: suverenitet, xalqaro huquq, inson huquqlari, kiberxavfsizlik, globalizatsiya, davlat mustaqilligi.

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье анализируется современная интерпретация принципа суверенитета в международном праве, его содержание и трансформация под влиянием глобальных процессов. В отличие от вестфальской модели, современный суверенитет рассматривается как относительное, взаимосвязанное и ограниченное ответственностью государство понятие. В статье раскрывается влияние приоритета прав человека, концепции ответственности за защите роле международных организаций, кибербезопасности, экономической интеграции и транснациональных вызовов на государственный суверенитет. На основе



практических примеров и международных документов представлены научные выводы о современной модели суверенитета.

***Ключевые слова** суверенитет, международное право , ответственность по защите , права человека , кибербезопасность , глобализация , государственная независим.*

***ANNOTATION:** This scientific article examines the modern interpretation of the principle of sovereignty in international law, it is conceptual evolution, and it is transformation under the influence of global processes. Unlike the traditional Westphalian approach contemporary sovereignty is viewed as relative , interdependent , and responsibility-bound concept. The study explores the impact of human rights supremacy, the Responsibility to Protect (R2P) doctrine, the role of international organizations , cybersecurity challenges, economic integration , and transnational issues on state sovereignty. Based on case studies and international legal instruments, the paper presents scholarly conclusion about the modern legal model of sovereignty.*

***Keywords:** sovereignty , international law , human rights , cybersecurity , globalization , state independence.*

KIRISH

Suverenitet tamoyili xalqaro huquqning eng muhim poydevori tushunchalaridan biri bo'lib , u asrlar davomida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yo'nalishini belgilab kelgan. Tarixda suverenitet, avvalo, davlatlarning ichki va tashqi ishlari ustidan to'la mustaqilligi , hududiy yaxlitligi va boshqa davlatlarning aralashuviga yo'l qo'ymaslik kabi an'anaviy belgilar bilan ifodalangan. Vestfaliya tizimi shakllanganidan buyon mazkur tamoyili xalqaro tartibotning asosi bo'lib xizmat qilib, har bir davlatning siyosiy hayotidagi eng muhim kafolatlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Biroq XXI asrga kelib, dunyo tubdan o'zgarib , davlatlarning avvalgi tarzda mustaqil holda faoliyat yuritishi tobora qiyinlashib bormoqda. Globalizatsiya, xalqaro istisodiy bog'liklik, mintaqaviy integratsiya, texnologik rivojlanish, kiberxavfsizlik singari omillar suverenitet masalasini qayta ko'rib chiqishga majbur



qilmoqda. Endilikda suverenitet faqat davlatning huquqlari emas, balki uning xalqaro hamjamiyat oldidagi mas'uliyatlari bilan ham chambarchas bog'lanib qoldi. Xususan, inson huquqlarining ustuvorligi, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, transmilliy tahdidlar oldida hamkorlikda harakat qilish kabi talablar suverenitetning zamonaviy mazmunini belgilayotgan omillardan hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro huquqshunoslikda suverenitet “ mutlaq “ yoki “o'zgarmas “ tushuncha sifatida emas, balki zamon va ehtiyojlar bilan moslashib boradigan dinamik huquqiy tamoyil sifatida talqin qilinmoqda. Davlatlarning o'zaro bog'liqligi kuchaygani, iqtisodiy va axborot maydoning kengaygani, kiberhududning chegarasizligi va global inqirozlarning ko'paygani shuni ko'rsatadiki, suverenitetni faqat milliy chegaralar bilan izohlash bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shu bois xalqaro maydonda suverenitet tushunchasi asta-sekin “mas'uliyatli suverenitet”, “inson huquqlari bilan uyg'un suverenitet”, “kiber suverenitet” kabi yangi talqinlar bilan boyib bormoqda.

Mazkur maqolada suverenitet tamoyilining aynan mana shu zamonaviy talqinlari uning huquqiy asoslari, o'zgarish omillari va amaliy jihatlari batafsil yoritiladi. Tahlillar davomida xalqaro hujjatlar, dolzard voqealar, turli davlatlarning tajribasi hamda global xavfsizlik bilan bog'liq misollar asos qilib olinadi. Maqolaning maqsadi- suverenitet tamoyilining bugungi xalqaro huquqiy tizimdagi o'rnini, uning mazmunidagi yangilanishlarni va davlatlar faoliyati uchun qanday ahamiyat kasb etishini ilmiy nuqtayi nazardan ochib berishdir.

ASOSIY QISM

Xalqaro huquqda suverenitet tamoyilini davlatning eng asosiy va eng qadimiy tamoyillaridan biridir. Suverenitet deganda davlatning o'z hududi, o'z ichki ishlari va tashqi siyosati ustidan mustaqil ravishda qaror qabul qila olishi tushuniladi. Har bir davlat o'z hududi ichida yagona hokimiyatga ega bo'lishi va boshqa davlatlar bilan teng huquq asosida munosabat yuritishi suverenitetning mazmunini belgilaydi. Bugungi kunda suverenitet nafaqat hududiy va siyosiy mustaqillik, balki davlatlarning xalqaro maydondagi mavqei, mas'uliyati va o'z manfaatlarini himoya qila olish qobiliyatini ham anglatadi.



Avvalo , suverenitetning kelib chiqishi tarixiy jarayonlar bilan bog'liq. Dastlab Vestfaliya tinchligi davridan (1648-yil) boshlab davlatlar o'z hududi ichida mustaqil hokimiyatga ega ekanligi tan olingan. Bu tamoyil asta –sekin butun dunyoga tarqaldi va keyinchalik BMT nizomida ham mustahkamlandi. BMT nizomining I bobida “ maqsadlar va tamoyillar” qismida barcha davlatlarning teng suverenligi xalqaro huquqning asosiy tamoyillari qatorida turishi kabi tushunchalar berib o'tilgan. Hamda konstitutsiyaning 1-moddasida “O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat “ degan tushunchasi ham katta manoni anglatadi.

Suverenitetning eng muhim jihatlaridan biri- ichki suverenitet. Ya'ni davlat ichki siyosatini, iqtisodini , qonunlarini , tartib-qoidalarini mustaqil belgilaydi. Hech qanday davlat yoki xalqaro tashkilot uning ichki ishlariga aralasha olmaydi. O'zbekiston o'z yo'lini o'zi tanlaydi, ichki siyosatini o'zi belgilaydi va o'z hududida yagona hokimiyat manbai xalq hisoblanadi. Yana bir muhim modda O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 17-moddasida “O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir.

O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik , chegaralarning buzilmasligi, davlatning hududiy yaxlitligi , nizolarni tinch yo'l bilan hal etish , boshqa davlatlarning hududiy yaxlitligi , nizolarni tinch yo'l bilan hal etish , boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va bormalarga asoslandi” deyilgan. E'tiboringizni yana konstitutsiyasining 18-moddasiga qaratiladigan bo'lsak “ O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantrishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va davlatlararo tuzilmalariga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin”.



Zamonaviy davrda suverenitet tushunchasi avvalgidan ko'ra yanada murakkab tus olgan. Globalizatsiya , internetning rivojlanishi , iqtisodiy va texnologik bog'liqlik, ekologik muammolar kabi omillar davlatlarni o'zaro yanada bog'lab qo'ydi. Buning natijasida davlatlar ba'zi masalalarda xalqaro bitimlar orqali o'z vakolatlarining bir qismini umumiy manfaat yo'lida bo'lishishga majbur bo'lmoqda. Bu suverenitetning cheklanishi misolida tushunilmaydi, aksincha bu hamkorlik shakllarining kengayishi sifatida izohlanadi.

Masalan, O'zbekiston ko'plab xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan. Bu konvensiyalarga qo'shilish orqali davlat ayrim sohalarda umumiy qoidalarga amal qiladi, lekin bu O'zbekistonning mustaqilligini kamaytirmaydi. Aksincha xalqaro hamjamiyatlardagi mavqegini kuchaytiradi. Xuddi shunday, O'zbekistonning xalqaro istisodiy tashkilotlar bilan aloqalari ham suverenitetning zamonaviy talqinida muhim o'rin tutadi.

Siyosiy fanlarda suverenitetning yana bir ko'rinishi- xalq suvereniteti. Bu davlat hokimiyatining yagona manbai xalq ekanini anglatadi. Bu prinsip Konstitutsiyaning 7-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unda "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidagina amalga oshiriladi". Ya'ni davlat suveren bo'lishi uchun avvalo uning xalqi suveren bo'lishi kerak.

Bugungi dunyoda suverenitet masalasi nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy mustaqillik bilan ham bog'liq. Davlatning iqtisodiy mustaqilligi uning budjet siyosati, milliy valyuta, soliq tizimi va tabiiy boyliklarni boshqarish huquqida namoyon bo'ladi. BMTning 1962-yildagi "Tabiiy resurslar ustidan doimiy suverenitet" rezolyutsiyasi davlatlarning o'z yerosti boyliklarini mustaqil boshqarish huquqini tan olgan. O'zbekiston ham o'zining oltin, gaz, neft va boshqa resurslari ustidan to'liq nazoratga ega.

Yana bir muhim jihat- axborot suvereniteti. Raqamli dunyoda davlat o'z axborot makonini himoya qilishi, kiberxavfsizlikni mustahkamlashi lozim. Katta



texnologiyalar davrida davlatning ma'lumotlar bazasi, internet xavfsizligi va raqamli infratuzilmasi suverenitetning yangi qismi sifatida qaralmoqda. O'zbekiston ham axborot xavfsizligi bo'yicha bir qator qonunlar qabul qilgan va bu soha bo'yicha xalqaro tahkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

Suverenitetning zamonaviy talqinida yana bir jihat- davlatning xalqaro maydonda o'z mafaatlarini himoya qila olish qobiliyatidir. Bu diplomatik tashqi siyosat, iqtisodiy aloqalar va xalqaro shartnomalar orqali ta'minlanadi. O'zbekistonning "Tashqi siyosat konsepsiyasi"da suverenitetni saqlagan holda jahon hamjamiyati bilan teng huquqli aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, suverenitetning zamonaviy talqini davlatning ichki siyosati va xalqaro majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni topishni talab qiladi. Davlatning mustaqilligi uning xalqaro majburiyatlariga amal qilishi bilan mos kelmog'i zarur. Chunki xalqaro huquq normalari davlatlarning hamkorligini ta'minlaydi va umumiy tartibni saqlab turadi.

Umuman olganda , suverenitet- bu davlatning mustaqil mavjud bo'lishi va o'z yo'lini erkin tanlay olishi demakdir. Ammo mustaqil bo'lish bilan birga mas'uliyat ham keladi. Davlat xalqaro hamjamiyat oldida o'z majburiyatlarini bajarishi , tinchlikni saqlashi , atrov-muhitni himoya qilishi , inson huquqlariga rioya qilishi suverenitetning mazmunidan joy oladi.

XULOSA

Bu mavzuni o'rganganimda, suverenitet nafaqat davlatning mustaqilligi, balki uning butun siyosiy va huquqiy hayotini belgilab beradigan asosiy tamoyil ekanini yanada aniqroq tushundim. Avval suverenitetni faqat "o'z yo'lini tanlash deb qabul qilgan bo'lsam, endi uning ichida davlatning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligi, xalqaro munosabatlarda teng huquqliligi kabi muhim jihatlar ham borligini angladim. Ya'ni suveren davlat boshqa davlatlarga qaram bo'lmaydi va o'z qarorlarini o'zi qabul qila oladi.

Shu bilan birga, suverenitet faqat huquq berib qo'ymaydi, balki davlat zimmasiga katta mas'uliyat ham yuklaydi. Chunki mustaqil bo'lgan davlat o'zining ichki siyosatini adolatli yuritishi, xalqning manfaatlarini himoya qilishi va xalqaro



maydonda ham qoidalarga amal qilishi shart. Bugungi globallashuv sharoitida davlatning suveren bo'lishi bilan birga, boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilishi ham juda muhim. Men uchun bu jihat qiziq bo'ldi: demak, suverenitet — o'zingning yo'ling bo'lishi, lekin shu yo'lni boshqalarga zarar yetkazmasdan yurish degani ekan.

O'zbekiston misolida suverenitetning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yanada chuqurroq his qildim. Konstitutsiyamizda mustahkamlangan 1-modda, shuningdek, davlat mustaqilligi va hududiy yaxlitligi haqidagi normalar O'zbekistonning o'z siyosiy yo'nalishini mustaqil belgilashiga huquq beradi. Bu esa mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi va davlat boshqaruvida barqarorlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, suverenitet har bir davlatning eng asosiy tayanchi, ya'ni "poydevori" hisoblanadi. Agar davlat suveren bo'lmasa, u na ichki siyosatini to'g'ri olib bora oladi va na xalqaro maydonda o'z ovozigacha ega bo'ladi. Shu mavzuni o'rganish orqali men davlat mustaqilligining huquqiy va siyosiy ahamiyatini yanada chuqurroq angladim va suverenitet xalqaro huquqda nega eng muhim tamoyillardan biri ekanini tushundim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1-modda, 17-modda, 18-modda va boshqalar) — rasmiy matn (lex.uz).

<https://lex.uz/m/acts/-20596>.

2. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida" Qonuni — qaysi tartibda xalqaro shartnomalar milliy huquqqa tatbiq etilishi ko'rsatilgan.

<https://lex.uz/acts/-121884>.

3. O'zbekiston Tashqi siyosat konsepsiyasi (2012; so'nggi tahrirlar bilan) — O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi suverenitet tamoyili va tashqi siyosat prinsiplari.

<https://lex.uz/docs/-5189655>.

4. United Nations Charter (BMT Nizomi) — to'liq matn (Article 2 va boshqa moddalar suverenitet tamoyiliga taalluqli).



<https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text>.

5.UN General Assembly Resolution 1803 (XVII) — “Permanent Sovereignty over Natural Resources” (1962) — resurslar ustidan doimiy suverenitet printsipli.

https://legal.un.org/avl/ha/ga_1803/ga_1803.html.

6.International Commission on Intervention and State Sovereignty (ICISS), “Responsibility to Protect” (R2P), 2001 — to‘liq hisobot (suverenitet va himoya mas’uliyati bo‘yicha asosiy hujjat).

<https://www.globalr2p.org/resources/the-responsibility-to-protect-report-of->

7.Ruohonen, Jukka — “The Treachery of Images in the Digital Sovereignty Debate” (Digital Sovereignty, arXiv PDF, 2020/2021) — raqamli suverenitet haqida ilmiy tahlil.

<https://arxiv.org/pdf/2012.02724>.